

2-TOM, 6-SON

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTONDA TOMOSHA
SAN'ATI, KINO VA TELEVIDENIYANING RIVOJLANISH TARIXI

Ochilova Kamola Ilxom qizi

QarMII tadqiqodchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda tomosha san'ati, kino va televideniyaning rivojlanish tarixi haqida so'z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda tomosha san'ati, kino va televideniyaning rivojlanish tarixi bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, O'zbekiston, tomosha san'ati, kino va televideniya.

1. KIRISH.

O'zbek teatri rivoji davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida qaralayotgani bu yo'ldagi ishlarning yanada rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining "O'zbek teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi 1998 yil Farmoni milliy teatr san'atining istiqbolini belgilab bergan xujjat bo'ldi.

O'tgan qisqa vaqt davomida yaratilgan yuzlab sahna asarlari orasida "Piri koinot", "Kunduzsiz kechalar", "Hayotdan to'ygan tun" (Hamza nomidagi teatr), "Amir Temur" (Sirdaryo teatri), "Buyuk ipak yo'li" (Abror Xidoyatov nomli teatr), "Ato qilingan muhabbat tariqati" (Yoshlar teatri), "Ot kishnagan tomonda", "Boz masxaraboz" (Y.Oxunboboyev nomli Yosh tomoshabinlar teatri), "Beddua" (Qoraqalpoq teatri), "Kampir topaymi, dadajon" (Farg'ona teatri), "Rangin tushlar" (Ilhom), "Taqdir" (Muqimiy nomli teatr), "Amerikancha nikoh" (Operetta teatri), "Figaroning uylanishi", "Oqqush ko'li" (Alisher Navoiy nomli DAKT) singari spektakllar teatr muxlislari va mutaxassislari e'tiborini qozondi. O'z navbatida O'zbekistonlik rejissorlar ham chet ellarda spektakllar sahnalashtirish uchun takliflar olmoqdalar. Abror Xidoyatov nomli teatr badiiy rahbari B.Yo'ldoshev Fransiyada, O'zbekiston Yoshlar teatrining badiiy raxbari N.Abduraxmonov Isroilda asarlar sahnalashtirdi.

2. Adabiyotlar tahlili:

Istiqlol sharofati bilan o'tgan "Sharq va G'arb", "Navro'z – 97" Xalqaro teatr festivallari madaniy hayotda muhim voqea bo'ldi. Bu festivallarda qator Yevropa va Osiyo mamlakatlari Angliya, Germaniya, Finlandiya, Rossiya, Yaponiya, Hindiston, Syangan, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi qator mamlakatlar teatr jamoalari ishtirok etdilar.



2-TOM, 6-SON

Teatr jamoalarimizning AQSH, Fransiya, Germaniya, Hindiston, Malayziya, Syangan, Rossiya, Misr singari mamlakatlarda o'tgan xalqaro festivallardagi muvaffaqiyatli ishtiroklari, balet ustalarining Londonda malaka oshirishlari ham shu yo'ldagi xayrli ishlar sirasiga kiradi. Yoshlar teatrlarining "Xumo" xalqaro festivallari jug'rofiyasi yildan-yilga kengayib borayotganligi, ikkinchi tarafdun uning marafon shaklida o'tayotganligi san'at muxlislariga horijlik mexmonlar san'ati bilan yaqindan tanishish imkonini tug'dirmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan asrlar davomida shakllangan ommaviy xalq bayramlari teatrlashgan tomoshalar timsolida yangi harakter kasb etdi. Qisqa vaqt mobaynida keng miqyoslarda nishonlanadigan teatrlashgan maydon tomoshalari nomli yangi san'at turi dunyoga keldi.

O'zbekiston kinosan'atining rivoji uchun Respublikamizning mustaqilligi keng yo'l ochib berdi. Mustaqilligimizning dastlabki yiliyoq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 9 martdagi Farmoni bilan kino sohasining alohida tarmoq tizimi sifatida qaytadan tiklanishi, 1996 yil 29 apreldagi Farmonga asosan "O'zbekkino" davlat-aksionerlik kompaniyasining tuzilishi ana shu g'amxo'rlikning amaliy natijasidir. Hozirgi kunga kelib kino sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yanada yuqori bosqichga o'tdi. Milliy kino san'atimiz rivoji uchun mustahkam huquqiy asos yaratilib, ishlab-chiqarish bazasini rivojlantirish uchun keng yo'l ochib berildi.

Har yili milliy kino extiyojlari uchun davlat budjetidan kafolatlangan maqsadli mablag'lar ajratilib, qo'shimcha sarmoyalar jalb etish uchun zarur qonuniy shart-sharoitlar yaratildi. Davlat tomonidan ajratilgan mablag'larga suratga olingan "Buyuk Amir Temur", "Imom al- Buxoriy", "O'tgan kunlar", "Otamdan qolgan dalalar", "Abdullajon", "Voiz" filmlari madaniy hayotimizda katta voqea bo'lib, tomoshabinlar tomonidan iliq qabul qilindi. Umuman,"O'zbekkino" DAK faoliyatining dastlabki davrida, ya'ni 1996-98 yillar davomida muayyan ijobiy jihatlar ustunlik qildi.

3. Tadqiqot metodologiyasi:

1998 yildan e'tiboran "Ma'naviyatimiz qo'limizda yengilmas kuchga aylansin" shiori ostida o'zbek milliy filmlari festivali joriy etilishi ham respublika madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. 1998-2001 yillarda Buxoro shahrida I, II, III, IV o'zbek milliy filmlari festivallari o'tkazilib, so'nggi yillarda yaratilgan hujjatli, badiiy, animatsiyali filmlar keng jamoatchilik e'tiboriga havola etildi. Shu davr oralig'ida Fargona (1999) va Navoiy (1998, 2001) viloyatlarida o'tkazilgan "O'zbek kinosi kunlari", "Kino bayrami" kunlari milliy kinosan'atimiz namunalarini targ'ibot va tashviqot etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Koreya, Malayziya kabi davlatlarda



2-TOM, 6-SON

o'tkazilgan "O'zbek kinosi kunlari" milliy kinofilmlarimizni jahonga tanitish va targ'ib etishning o'ziga xos tajribasi bo'ldi.

Respublika badiiy hayotida ulkan voqea bo'lgan "Islom Karimov: O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" (muallif va rejissor V.Isxoqov, rejissor Sh.Qurbonboyev, operatorlar T.Qurbonov, G'.Shukurov, U.Ortiqov, E.Shoyunusov) turkum filmining "Milliy xavfsizlikning harbiy strategik asoslari" deb nomlangan 4-qismi Moskva shahrida bo'lib o'tgan MDH va Boltiq bo'yi davlatlarining hujjatli kino va telefilmlar festivalida MDH davlatlari va Mudofaa Vazirlari Kengashining maxsus mukofoti, III Yevrosiyo teleforumi diplomi va maxsus "Terrorizm xavfiga qarshi MDH davlatlarining hamkorlikdagi kurashini keng va yorqin aks ettirgani uchun" diplomi bilan taqdirlandi.

Rejissor Y.Roziqovning "Voiz" filmi (s.mual.Y.Roziqov, operator U.Hamroyev) 1999 yilda Anapa shahrida o'tkazilgan MDH va Boltiq bo'yi mamlakatlarining "KinoShok" Festivalidan Bosh sovrin va kinotanqidchilarning eng yuqori sovrini bilan qaytdi. Shuningdek, mazkur film Berlin Xalqaro kinofestivali, Dehli, Sietlda bo'lib o'tgan kinoanjuanlar ko'rik-tanlovida ishtirok etdi.

M.Abzalovning "O'tgan kunlar" filmi ham Gatchina shahrida o'tgan "Kino va adabiyot" festivalida maxsus sovrin bilan mukofotlangan. 1991-2001 yillarda Sh.Abbosov, L.Fayziyev (marhum), T.Kamolova, X.Fayziyev, M.Abzalov kabi ustoz san'atkorlar bilan bir qatorda I.Ergashev, Z.Musoqov, Y.Azimov, S.Nazarmuhamedov, Y.Roziqov, B.Odilov, J.Qosimov, T.Qalimbetov, Y.Sobitov, N.Abbosov singari yosh rejissorlar ijod qilmoqdalar. M.Tuychiyev, Sh.Boshbekov, R.Muhammadjonov, Z.Musoqov, Y.Roziqovlar qalamiga mansub senariylarda milliy kinoning o'ziga xos jozibasi, maroqli xususiyatlari aks etmoqda. Operatorlardan H.Fayziyev, R.Ibrohimov, H.Hasanov, D.Abdullayev, U.Hamroyevlarning, shuningdek, kinomusavvirlar Y.Guseynov, D.Abdurahmonov, I.Gulenko, Z.Nosirovalarning ijodlari kinosan'atimizda alohida o'rin tutadi. Zamonaviy kinomusikaning rivojida kompozitorlar E.Solixov, M.Mahmudov, D.Yanov-Yanovskiy, J.Izomovlarning ulushlari salmoqlidir.

4. Tahlil va natijalar.

1991-2001 yillarda o'zbek badiiy kinosi keskin ijtimoiylikdan bir qur chekinib, ma'naviy-ruhiy izlanishlar qatlamida gavalana boshladi. Hayot muammolari, mavjudlik muammolari bilan bog'liq mavzular bilan bir qatorda ta'sirchan melodrama va yengil komediya filmlaridan iborat "etnik kino" yo'nalishi ham o'z rivojini topa boshladi. "Temir xotin", "Sharif va Ma'rif" (rejissor I.Ergashev), "Sho'rpehonalar" (rejissor J.Qosimov, B.Odilov), "Dallol" (rejissor B.Odilov), "Qarib quyilmagan", "Chimildiq" (rejissor



2-TOM, 6-SON

M.Abzalov), “Adashganlar” (rejissor R.Muhammadjonov), “Bomba”, “Kichkina tabib” (rejissor Z.Musoqov) filmlari fikrimiz dalilidir.

Kino san’atida 1991-2001 yillarda kechgan badiiy-ijodiy jarayonlar tahlili so‘nggi yillarda ekranlarga chiqqan ayrim asarlarda badiiy-estetik did tanqisligi, zamonaviy mavzu va qahramon talqinidagi yuzakilik, bayonining tomoshabin uchun zerikarli, sust maromda kechishi holatlarini ham aniqlashga imkon berdi. Bu o‘rinda “Piyoda”, “Baxt qadri”, “Pari Momo”, “Oliyjanob sevgi”, “Fazli”, “G‘urbat” filmlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Buning asosiy sabablari milliy kinodramaturgiya muammolari doirasida bo‘lib, xususan, senariy tanlashda mezonlarning pasayib ketgani bilan bog‘likdir. Shuningdek, filmlar namoyishi (ki- noprokat), mutaxassislarni tayyorlash, tomoshabin bilan aloqani mustahkamlash hamda kino sohasining moliyaviy o‘z-o‘zini qoplay olisholmasligi bilan bog‘liq muammolar ham o‘z yechimini kutmoqda. Tariximizni o‘rganishga talab bor ekan, bu tarixni kino tasmalarida muxrlovchi hujjatli filmlarga ham ehtiyoj oshmoqda. Istiqlol kinosolnomasini yaratishda hujjatli filmlarning o‘rni beqiyosdir. “O‘zbekiston mustaqillik yo‘lida”, “Istiqlol fidoyilari”, “O‘zbekiston Qahramonlari”, “Islom Karimov: O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” ruknlaridagi hujjatli filmlar fikrimiz dalilidir.

5. XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston teleradiokompaniyasi tizimida tayyorlanayotgan badiiy va hujjatli-axborot dasturlari, turli mavzudagi ko‘rsatuvlar, videofilmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasi milliy istiqloq mafkurasi mezonlariga hamohangdir. Milliy televideniye yurtimizda kechayotgan tub islohotlarni keng targ‘ib etish yuzasidan samarali faoliyat olib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фиолетова Н. Ашгабат встречает друзей // Народное слово. 1993 года, 27 марта.
2. O‘zMA M-38, ro‘yhat – 1, yig‘ma jild – 156, 147 - varaq.
3. San’atshunoslik fanlari doktori, UzDSMI professori Muxabbat To‘laxo‘jayeva bilan qilingan suhbatdan. Suhbat 2016 yil 29 yanvarda yozib olingan.
4. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1998 yil 26 martdagi PF-1980-sonli “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 4-son, 61-modda.
5. 27 mart – Xalqaro teatr kuni // Teatr. – 2000. – №2. – B. 4.
6. Sayfullayev N. Mustaqillik davri O‘zbekiston teatr san’ati tarixi. Tarix fanlari doktorlik dissertatsiyasi. –T., 2022. – B.114.
7. Tursunov T. Sahna va zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 336 bet.



2-TOM, 6-SON

8. Choriyeva D. “O‘zbekistonda madaniyat sohasi boshqaruv tizimi tarixi (Madaniyat vazirligi faoliyati misolida, 1991-2016 yy.)”. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik diss... –T., -B.103.

9. “Seni kuylaymiz, zamondosh!” O‘zbekiston teatrlarining respublika tanlovi 2011 yildan boshlab har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi.

10. Fazilova M. Dramaturgiyada zamondosh qahramon obrazi // Sharq yulduzi. – 2015. – №2. – B. 166.

11. Asar 2015-yilda rejissor V.Umarov tomonidan O‘zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan.

12. Choriyeva D. “O‘zbekistonda madaniyat sohasi boshqaruv tizimi tarixi (Madaniyat vazirligi faoliyati misolida, 1991-2016 yy.)”. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik diss... –T., -B.107.

13. Umarov V. Mavsumdan so‘ng. Sarhisob rukni // Teatr. – 2015. – №1. – B. 2-3.

14. Sayfullayev D. O‘zbekiston Respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixi (1991-2019). ... – 136 bet.

15. Seni kuylaymiz, zamondosh // Teatr adabiy-badiiy, axborot - reklama jurnali. 2019/3. – 2 bet.

